

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatda 2 526 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 580 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligining 23,0 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 538 tasi (21,3 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 186 tasi (7,4 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 171 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga va 154 tasi (6,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 69 962,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 110,9 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	69 962,6	110,9
Navoiy sh.	60 950,0	109,1
Zarafshon sh.	342,3	101,7
G'ozg'on sh.	64,3	105,4
tumanlar:		
Karmana tumani	4 340,0	89,6
Konimex tumani	313,2	101,3
Qiziltepa tumani	715,9	102,8
Navbahor tumani	510,1	98,5
Nurota tumani	223,4	103,7
Tomdi tumani	35,6	105,2
Uchquduq tumani	205,6	106,2
Xatirchi tumani	686,2	89,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 58 120,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 8 607,6 mlrd so'm (12,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 069,1 mlrd so'm (4,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 165,5 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2025-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 17,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 53,4 % ga oshgan), 43,1 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (12,8 % ga ko'paygan), 854,5 ming tonna sement (10,1 % ga kamaygan) hamda 180,2 ming m³ azot (6,5 m³ ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	13,4	11,2	17,1
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	36,8	38,2	43,1
Yogurt, tonna	2,4	1,0	7,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, ming d	1 193,6	1 555,7	952,2
Azot, ming m ³	27,8	27,7	180,2

Argon, ming m ³	72,2	531,9	708,6
Mochevina (karbamid), ming t azot	79,9	100,4	107,9
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	3,2	5,1	5,5
Portlandsement, ming t	1 216,3	951,0	854,5
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	29,5	127,2	132,9

*2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 83,4 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,0 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024-yilning yanvar-may oylarida 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,7 % (8,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 86,4 % (83,7 %), quyi texnologiyali 6,7 % (7,4 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 72,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 92,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	4 486,3	4 893,5	3 554,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 267,0	2 297,5	2 127,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 6,6 m ga, oqava suvlarning shlamasi 26,0 m % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 43,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	19,2	20,8	136,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	60,8	66,9	29,1
Oqava suvlarning shlamasi, mlrd so'm	1,3	0,8	21,6

*2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 067,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvalri natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyomatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

